

## GENDER MUNOSABATLAR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK TARAQQIYOTI

**Ramazonov Jahongir Djalolovich**

*Buxoro davlat pedagogika instituti, psixologiya kafedراسi dotsenti.*

**Abdullayeva Mohidil Esanbayevna**

*Osiyo xalqaro universiteti magistranti*

***Annotatsiya.** Maqolada genderlik tushunchasi, tarixiy rivojlanish bosqichlari, oilaviy munosabatlarda gender xususiyatlar evolyutsiyasi haqida, xotin-qizlar hayoti, gender tenglik tarixiy taraqqiyoti, jamiyat hayotidagi tutgan orni, ularning ijtimoiy-madaniy qiyofasini takomillashishida psixologik, sotsiologik yondashuvlar, kategoriyalar tahlili keltirilgan.*

***Kalit soʻzlar:** gender munosabatlar, erkak va ayol, er-xotin, ijtimoiy-madaniy qiyofa, ijtimoiy taraqqiyot, gender tenglik.*

Oila jamiyatning eng asosiy boʻlimlaridan biri boʻlganli sababli uning tinchligi, mustahkamligi avvalambor oila aʼzolarining bir birini tushinishi va maqsadlarini anglab yetishlariga bogʻliqdir. Oʻzbek tilining izohli lugʻatida: «Oila» soʻzi etimologik jihatdan arabcha «ailat», «ayolmand», «niyozmand» maʼnosini bildirib, «er-xotin, ularning bola chaqalari va eng yaqin tugʻishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmuyi, xonadon» degan maʼnoni anglatadi.

Oila xalqning, turmush sharoitida mavjud boʻlgan anʼana, urf-odat va har bir oila uchun individual boʻlgan tarbiyaviy va taʼlimiy odatlarini kelajak avlodiga yetkazib kelayotgan jamiyatning kichik bir boʻgʻinidir.

Oilada milliy qadriyatlar asosida farzandlarning tarbiya topishi, muhitning oʻzgarishi jarayonida etnopsixologik xususiyatlarining oʻzgarishi va sharoitga qarab moslashib borganligi bilan oʻziga xosdir. Har bir jamiyat etnik kelib chiqishiga koʻra tili, millati, dini, taʼlim tarbiyasi jihatidan oila mustahkamligiga turlicha yondashadi.

«Ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning eng muhim jihatlaridan biri bu tegishli tushuntirishlarning mavjudligi ushbu masala bilan bogʻliq tushunchalarga berilgan. Qonunda teng huquqlarni kafolatlashning asosiy tamoyillari va ayollar va erkaklar uchun imkoniyatlar: qonuniylik, demokratiya, jinsi boʻyicha kamsitmaslik, ochiqlik, shaffoflik. Endi bunda normativ-huquqiy baʼzani shakllantirish, takomillashtirish va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega davlat dasturlari, milliy harakatlar rejalari va strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish ushbu kontekstdagi eng muhim vazifalardir. Chunki ushbu hujjatlarni yaratish orqali rivojlanish huquqiy madaniyatni shakllantirish kabi yoʻnalishlarda ijro etishning oʻziga xos mexanizmlari, faoliyati tashkil etilgan ayollar va

erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar, ularning boshqaruvda teng ishtirokini ta'minlash to'g'risida jamiyat va davlat ishlari, mas'uliyatli onalik va otalikni shakllantirishdir.

Aflotun antik davrning mashxur faylasuflaridan biri bo'lib, o'zining «Bazm», «Davlat», «Qonunlar» asarlarida oila-nikoh, jinslar tengligi, jamiyatda ayollar va erkaklarning huquq-majburiyatlari masalalariga e'tibor qaratadi.

Gender munosabatlarni ifoda etishda Aflotun androgin haqidagi afsonalarga to'xtaladi. Androgin (yunoncha andros - erkak va gyne yoki gynaikos - ayol. Erkak va ayollik xususiyatlariga ega mavjudotlar) haqidagi afsonada aytilishicha, «Zeus insonlarning itoatsizligi uchun g'azablanadi va ularni ikki jinsga bo'lib yuboradi. Shunday qilib erkak va ayol - bir butun insonning ikki qismidir va ular faqat birlashsagina yaxlitlikka, mukammallikka erishadi»[1]. Aflotun oila yuritish qonun qoidalari haqidagi g'oyalari diqqatga sazovordir. Uning qarashlarida erkaklarni 30 yoshdan 50 yoshgacha farzandli bo'lishi, aholi ko'payib ketsa ularni ma'lum bir qismini kalloniyalarga ko'chirish g'oyalari mavjud bo'lgan. U ayollarga salbiy jihatidan ham tarif bergan. Masalan, erkakni ayolga bo'lgan munosabatini «Razil Afrodit», erkakni erkakga bo'lgan munosabatini esa «Samoviy Afrodit» sifatida ta'rif berib o'tgan. Aflotun ayollarga nisbatan faqat salbiy munosabtda bo'lmagan, uning ijobiy munosabatini ayollar davlat ishlarida erkaklar bilan tengligi, uy-ro'zg'or ishlaridan holi, davlat ishida, farzand tarbiyasi faolligini har ikkala jins vakillari uchun teng ekanligini aytib o'tgan. «Aflotun «Ideal davlat» asarida erkak va ayol tabiati o'rtasidagi farq nisbiy va faqat reproduktiv sohaga taalluqli degan xulosaga keladi»[2]. Yana bir qarashlarida «ayol va erkak» o'rtasidagi farqni quydagicha aytib o'tgan: «Biz allaqachon boshqacha ekanligiga rozi bo'ldik. «Tabiat boshqacha qilishi kerak va ayolning tabiati erkaknikidan farq qiladi»[3].

Antik davr faylasufi, matematik Pifagor o'zining ilmiy g'oyalarida jamiyatda ayol va erkak teng yaratilgani haqida bahs mulohaza yuritadi. Bunday g'oyalar Suqrot ta'limotida ham uchraydi. Suqrot shaxs erkinligi va ozodligi, inson va fuqarolar huquqi haqidagi g'oyalari bilan yoshlar ongini zaharlashda ayblanib o'limga mahkum etilgan.

Gender tenglik muammosi antik davrda faylasuflarni davlat boshqaruvi, jamiyat tinchligi va yuksalishi uchun zarur bo'lgan qarashlari va g'oyalari orqali ifodalashga uringan.

«O'zbek oilasining uzoq tarixiy yaxlit axloqiy ma'naviyat tizimlarini mujassamlashtirish jarayoni uzoq tarixiy jarayonlar orqali kerakli bilim saqlab qolishi va kelajak avlodga yetkazib berilishi jarayonida ro'y bergan. Bunday ma'lumotlarning avloddan-avlodga yetkazilishi xalq og'zaki ijodi namunalari masalan termalar, dostonlar, rivoyatlar, ertaklar misolida og'izdan og'izga o'tib boyib borgan. Oilaning mustahkamligi, farzand azizligi «Alpomish», «Rustamxon», «Ravshan» kabi dostonlarimizda o'z aksini topgan. Bundan tashqari yozma manbaalarimizda ham

saqlanib kelinayotgan oila, farzand, ota-ona masalalari qadimgi yozma manbalarimiz «Avesto», muqaddas kitobimiz «Qur'oni Karim», «Hadisi sharifda» va «Qutadg'u bilik», «Qobusnoma» kabi qadimiy yozma manbaalarimizda ham keltirib o'tilgan»[4].

Qadimgi tarixga nazar solsak Markaziy Osiyo hududida keng tarqalgan «Zardushtiylik» dinida ham jamiyat tinchligi oila tinchligi bilan chambarchas bog'liqligi keltirib o'tilgan. «Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»da o'zbek oilalarida hozirgi kunda ham mavjud bo'lgan ijtimoiy vazifalar saqlanib, shakllanib kelganligini ko'rishimiz mumkin. Avestoda oilada ota-onaning oiladagi roli ularga hurmatda bo'lish keltirib o'tilgan. Farzandlar, aka-ukalar, opa-singillar orasidagi munosabatlar, qadriyatlar hozirgi kunda ham meros sifatida o'tib kelayotganligida namoyon bo'lmoqda.

Avesto uning tarjimalari, qismlari, ma'nolari ko'pgina olimlar tomonidan o'rganilgan va tarjima qilinib omma ixtiyoriga toshirilgan. Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida Avesto, Spetama Zardusht kimligi haqida ma'lumot berib o'tgan va ma'lumotlarni tahlil qilgan - «Rumliklar da'vosicha Zardusht Mavsuldan bo'lgan. Ehtimol ular Ozorbayjon bo'lsalar kerak»[5].

K.Kosovich Avestoning to'rt maqolasini rus va lotin tiliga tarjima qilgan bo'lsa, kitobda keltirilgan shaxslarning haqiqiyliigi, tarixiy nomlarini M.M.Diyakonov talqin etgan.

Ibroxim Pur Dovut Avestoni fors tiliga, I.Darmestater va L.X.Mills tomonidan ingliz tiliga, adabiy janrda birinchi marta to'liq Asqar Maxkam tomonidan tarjima qilingan.

Avestoda oila masalasi yuqori o'rinda turgan. Oilada er-xotin munosabatlari, voyaga yetayotgan qiz va yigitning vazifalari aniq ko'rsatilib o'tilgan. Oila qurish, juft tanlashda, oiladagi yoshi ulug'lar bilan maslahatlashish yaxshi va yomonni farqlashi va o'zi to'g'ri deb bilgan yo'lni tezda tanlashi aytib o'tilgan.

«Avesto»da oilaning mustahkamligi borasida ham bir qancha chora- tadbirlar amalga oshirish nazarga tutilgan bo'lib, «zurriyodning pokizaligi, naslning sog'lomligi xususida qayg'urilib, bunga erishish yo'li sifatida atrof-muhitni muhofaza qilish, jamoat, oila, shaxsiy ozodalik, gigiyenaga rioya qilish, shuningdek, oila qurish jarayonida har jihatdan benuqson, sog'lom kelinlar tanlash»[6] uqtirilgan va bunga amal qilish qat'iy qilib belgilangan.

Gender farqlar va tenglik asosida tashkil etilgan oilaviy jarayoni esa jamiyat taraqqiyotiga muhim hissa qo'shib, o'quvchi shaxsining madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik jihatdan barqaror rivojlanishi uchun zarur tarkibiy qism sifatida maydonga chiqadi.

Oilada ota-ona munosabati, farzand tarbiyasi asosiy masalalardan biri sifatida keltirib o'tiladi. Farzandlarni oqil dono qilib tarbiyalash esa ota-ona uchun burch va farzdir. Ota-ona farzandini duo qilishi ham farzand uchun eng oliy mukofotdir. Imom al-Buxoriy harzatlarning «Al-adab al-Mufrad» asarida quyidagicha keltiriladi: «Uch toifa

kishilarning duosi hech shubhasiz Alloh taolo qoshida maqbuldir: mazlum kishining duosi, musofirning duosi va ota - onaning duosidir»[8].

Gender tenglik rivojlanish tarixida buyuk allomalarimiz, davlat arboblari, ulamolarning sayi-harakatlari tufayli ayollarni qadrlash, ularga hurmatda bo'lish kabi tushunchalar hozirgi zamonamizgacha yetib keldi. Gender psixologiyasini tarkibida ayollar va erkaklarni hurmat qilish har ikkala jins vakillari uchun birdek ahamiyat kasb etadi.

O'zbek xalqi va oilalaridagi etnopsixologik masalalar, muammolar dastlab sobiq ittifoq tadqiqotchilari tomonidan o'rganilgan. Etnopsixologiya muammolarini o'rganish bevosita o'tgan asrning 20-30-yillarida boshlangan bo'lsa-da, bu masalani o'rganishdagi ayrim g'arb olimlarining (irqchilik va millatchilik haqida) nazariyalari bu fanning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatgan edi. Shuning uchun ham mamlakatimizda 30-yillarning o'rtalariga kelib «Etnopsixologiya», «milliy psixologiya», «milliy xarakter», «milliy psixologik qiyofa» terminlari salbiy ma'no anglatma boshladi. Etnopsixologik tadqiqotlarning ikkinchi bosqichi sifatida o'tgan asrning 60-yillarini ko'rsatish mumkin. Negaki, aynan shu davrdan e'tiboran ijtimoiy-siyosiy hayotda ro'y bergan o'zgarishlar, milliy ongning o'sishi, millatlararo integratsiyaning kuchayishi natijasida etnopsixologiyani o'rganishga bo'lgan qiziqish bir muncha kuchaydi. Buning natijasi o'laroq milliy psixologik xususiyatlarni o'rganayotgan olimlarimizning bir qancha mazmunli, qiziqarli va muammoli ilmiy maqolalari, kitoblari nashr etildi. Bir qator e'tiborli ilmiy jurnallardan millat va uning psixologik xususiyatlari to'g'risida olimlarning bahs-mulohazalari o'rin oldi.

Psixologiyada gender tenglik fenomenini o'rganish bo'yicha psixologik va sotsiologik yondashuvlarning umumiy o'rganish va tahlil etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Gender psixologiyasining rivojlanish tarixiga nazar soladigan bo'lsak, «A.I.Polyanskiy gender psixologiyasini rivojlanishini quyidagi turlarga ajratib ko'satib o'tgan:

1. Falsafa tarkibidan birqancha g'oyalarni ajralib chiqishi (qadimgi davrdan 19 asr oxirigacha).
2. Gender psixologiyasida predmet va bo'limlarning paydo bo'lish bosqichi (19-asr boshi 20-asr oxiri).
3. Z.Freyd va psixoanaliz davri ( 20-asr boshi 1930 yillar).
4. Dastlabki nazariyalarning vujudga kelishi (1950-1980).
5. Gender psixologiyasining rivojlanish bosqichining tezlashishi (hozirgi davrgacha)»[9].

Davrlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak eng qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha bo'lgan davrlarda, turli olimlarning o'z qarashlari g'oyalari ta'sirida rivojlangan «jinsiy tenglik» tushunchasining paydo bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

Gender psixologiyasi bu shaxs xususiyatlarining tarkib topishi va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadigan sohasi bo'lib, ya'ni erkaklar va ayollarning shaxsiy

fazilatlarini, ijtimoiy rollari va jamiyatdagi, oiladagi mavqei bo'yicha qarama-qarshiligidir. Gender psixologiyasi, boshqa jins vakillariga qaratilgan bilim sohalari ya'ni gender falsafasi, sotsiologiyasi, tarixi, singari gender tadqiqotlari zahirida shakllangan.

Gender psixologiyasining rivojlanish bosqichlari haqida I.S.Klesina quyidagi bosqichlarni ajratib ko'rsatgan:

«Boshlang'ich bosqichi (20-asrning 90-yillari);

Gender psixologiyasini bilimning mustaqil sohasi sifatida aylantirish bosqichi XX-asr boshlarigacha;

Har bir davr o'z rivojlanish tarixida ma'lum ma'noda iz qoldirib kelgan va hozirgi rivojlanayotgan davlatimizga hissasini qo'shgan. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan boshlab, oila uning mustahkamligi, ona va bola sog'lomligiga, ayollarning jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi jamiyatda gender tengligiga erishish borasida chora tadbirlarni ishlab chiqdi. Dastlabki yillardan boshlab inson huquqlarini himoya qiladigan xalqaro hujjatlar BMT ning «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi» hamda «Bolalar huquqlari to'g'risida»gi Konvensiyalar asosida oila uning a'zolarini himoya qilish, o'z huquqlaridan foydalanish imkonini beruvchi milliy qonunchilik bazalari yaratildi.

Keyingi yillarda jamiyatda jinslarning o'zaro teng nisbatini yaratish va saqlab qolish maqsadida bir qancha chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Gender psixologiyasi rivojlanishi ayol va erkaklikka xos bo'lgan belgi xususiyatlari bilan ajralib turishi, har ikki jinsning rollarini turlicha ekanligi, ularning xulq-atvorida o'ziga xoslik, faoliyatidagi yondashuvning turlichaligi bilan ajralib turishini ko'rishimiz mumkin. Misol tariqasida ayollarda rashk, hissiy holatining yuqoriligi, kayfiyati juda ham o'zgarib turishi, emotsiyaga boyligi, ovoz va mimikada emotsiyani aks etishi bilan ajralib tursa, erkaklarda diqqat jamlanganligi iroda kuchining yuqoriligi, muloqot jarayonida qisqa faoliyat olib borish bilan ajralib turishini ko'rishimiz mumkin.

#### ADABIYOTLAR:

1. Ahmedov Botirjon Ravshanovich. «O'zbek tilida gender tadqiqi». Andijon-2012. - 11 b. [https://fayllar.org/magistr\\_darajasini\\_olish\\_uchun\\_tayyorlangan\\_dissertatsiya-ilm\\_i.htm](https://fayllar.org/magistr_darajasini_olish_uchun_tayyorlangan_dissertatsiya-ilm_i.htm)
2. Mohira Xoliqova Gender tengligi: G'arb va Sharq tamadduni. 21.03.2022. -1 b. [https://uza.uz/oz/posts/gender-tengligi-garb-va-sharq-tamadduni\\_357083](https://uza.uz/oz/posts/gender-tengligi-garb-va-sharq-tamadduni_357083)
3. Платон. Политика: Наука об управлении государством / Платон. – М.: Эксмо, 2003. – 140 с
4. Axmatova Guli Xurram qizi.»O'zbek oilalarining etnopsixologik xususiyatlarining gender xususiyatlariga ta'siri». «Uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim mazmunini yanada takomillashtirish istiqbollari». Respublika ilmiy-nazariy anjumani.»Durdon» nashriyoti Buxoro-2022. 745 b.

5. Abu Rayhon Beruniy .Tanlangan asarlar. «Fan» nashriyoti-Toshkent-1998.B.236-238.
6. Irgasheva Marxabo «Avesto»da oila tarbiyasi. <https://znanio.ru/media/avestoda-oila-tarbiyasi-2798229>
7. <https://quronvasunnat.uz/quron?sura=4>
8. Имом Исмоил ал-Бухорий «АЛ-АДАБ АЛ-МУФРАД» (Адаб дурдоналари) «Ўзбекистон» Тошкент-1990. 24.б
9. Бендас Т.В. Гендерная психология. – М. 2006, С.11.

